

**PROKURATURA NAZORAT YO'NALISHLARI BIRI BO'YICHA XORIJIY
DAVLAT QONUNCHILIGI BILAN QIYOSIY TAHLIL
FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROKUROR NAZORATI**

Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 2-kurs
talabasi Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : sevinchbonu487sv@gamil.com*

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki tushunchasi o'zi nima degan savolga to'xtalib o'tsak, ushbu tushunchadan biz prokurorni fuqarolik ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida protsessning barcha bosqichlarida alohida xususiyatlari va vakolatlari bilan qonunda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ishtirok etishini tushunishimiz mumkin.

Umuman olganda bilamizki, Fuqarolik huquqi taraflarning ixtiyoriylik ya'ni dispozitivlik tamoyiliga asoslanadi va nizo asosan ikki xususiy shaxs o'rtasida bo'ladi. Ya'ni taraflar suda teng bo'lsa, lekin nega prokuror ishtirok etyapti, uning ishtirok etishi qanday ahamiyat kasb etishi mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga esa quyidagicha javob berishimiz mumkin, fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror:

Birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va "Prokuratura to'g'risidagi" Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarining aniq va bir xilda ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash orqali sud tizimii faoliyati samaradorligini yanada oshirish va eng asosiylaridan biri, albatta, fuqarolarning huquq va erkinliklari va yuridik shaxslarning manfaatlarini to'la himoya qilish orqali odil sudlovga erishish imkoniyatini yanada oshiradi³¹.

Prokuror Fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritishda o'z-o'zidan asossiz ishtirok etmaydi, chunki uning ishtirokini ta'minlaydi bir necha asoslar mavjud.

Albatta, bular Konstitutsiya, "Prokuratura to'g'risidagi" qonun va Fuqarolik Protessual kodeksini ham keltirishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 25-bobi prokuratura organlariga bag'ishlanib, uning 143-moddasida shunday keltirilgan O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi³². "Prokuratura to'g'risidagi" qonunda ham 2 – moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalari berilgan ularga qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ta'minlash va boshqalarni keltirishimiz mumkin³³. Fuqarolik

³¹ <https://lex.uz/acts/-106197#:~:text=2%2Dmodda.%200%CA%BBzbekiston,profilaktika%20qilishdan%20iborat.>

³² <https://lex.uz/docs/-6445145#:~:text=XXV%20bob.%20Prokuratura,prokurorlar%20amalga%20oshiradi.>

³³ <https://lex.uz/acts/-106197#:~:text=2%2Dmodda.%200%CA%BBzbekiston,profilaktika%20qilishdan%20iborat.>



protsessual kodeksining 50-moddasida ³⁴ esa aynan Fuqarolik ishlari bo'yicha sud prokurorning ishtiroki aynan qaysi holatlarda ishtirok etishi va etmasligi konkret keltirib o'tilgan, xususan Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda masalan, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb e'lon qilish, shaxsni muomala layoqati cheklangan deb topish, ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish va boshqa hollarda, shuningdek davlat mulki, davlat budjetidan undiruvlar bilan bog'liq ishlarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda ishtirok etishi mumkin.

Lekin ushbu moddada shunday keltirilganki, prokuror boshqa shaxslarning arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas. Ya'ni bu bilan shuni tushunishimiz mumkin, prokuror boshqa shaxslarni ariza bilan qo'zg'atilgan ishda aynan o'sha shaxs kabi ya'ni da'vogar kabi ishtirok etadi va uning ba'zi huquqlaridan foydalanadi. Shu sababli sud qonun ustuvorligini va adolatni ta'minlash uchun bunga yo'l qo'yilmaydi.

Prokuror agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sud huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega³⁵.

Bundan tashqari prokuror fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlashga doir protsessual hujjatlarni ham kirirtish huquqiga ega, masalan: prokuror fikri, prokuror xulosasi, prokuror pretmeti, prokuror ariza yoki taqdimnomasini olishimiz mumkin.

Masalan prokuror xulosasini qachon berishi mumkin. Ushbu holatni ko'rib chiqaylik:

Prokuror jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan fuqarolik ishlarini chiqarib olib o'rganish natijalariga ko'ra sud hujjatlarining qonuniy, asosli va adolatli deb topish natijasida tuziladigan va protest keltirish vakolatiga ega bo'lgan prokurorlar tomonidan tasdiqlanadigan protsessual hujjat.

Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksining 51-moddasiga muvofiq, Prokurorning quyidagicha huquqlari mavjuda masalan, ish materiallari bilan tanishish, sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, rad etish to'g'risida arz qilish, sud hujjati ustida protest keltirish, ish mazmuni yuzasidan fikrini bayon qilish va boshqalar. Majburiyatlari esa agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuror o'z arz qilgan talabalarining asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar bildirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emas³⁶.

³⁴ <https://lex.uz/docs/-3517337#:~:text=50%2Dmodda.%20ishda,etishi%20mumkin%20emas.>

³⁵ <https://lex.uz/docs/-3517337#:~:text=Agar%20fuqaro%20sog%CA%BBlig%CA%BBining,etish%20huquqiga%20ega.>

³⁶ <https://lex.uz/docs/-3517337#:~:text=Agar%20da%CA%BCvogar%20rozi%20bo%CA%BBmasa%2C%20prokuror%20o%CA%BBzi%20arz%20qilgan%20talablarining%20asosini%20yoki%20predmetini%20o%CA%BBzgartirishga%2C%20qo%CA%BBshimcha%20talablar%20bildirishga%2C%20da%CA%BCvo%20talablarining%20miqdorini%20ko%CA%BBpaytirishga%20yoxud%20kamaytirishga%20haqli%20emas.>

Qozog'iston Respublikasini tanladim

Qozog'istonning Konstitutsiyasida ham 83-moddasida Prokuratura davlat nomidan, qonunda belgilangan doirada va tartibda Qozog'iston Respublikasi hududida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qiladi va sudlarda davlat manfaatlarini ifodalaydi deb belgilab qo'yilgan³⁷.

Shuningdek Fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonunning 54-moddasida Sudda prokurorning ishtiroki keltirib o'tilgan. Unda keltirilishicha: Qozog'iston respublikasining Bosh prokurori davlat nomidan bevosita yoki o'ziga bo'ysinuvchi prokurorlar orqali fuqarolik ishlari bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining qonuniyligi ustidan oliy nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu moddaga ko'ra prokuror davlat manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan, kamoat manfaatlarini yoki oz'ini o'zi himoya qila olmaydigan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lganda ishtirok etishi majburiy. Prokuorning ushbu vakolatlari sud tomonidan ko'rishga tayinlangan barcha ishlar to'g'risidagi sudning internet-resursiga joylashtirilgan ma'lumotlardan o'z vaqtida xabaordor qilinishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari prokuror ayana quyidagi shaxslarning buzilgan huquqlarni tiklash va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi ular: jismoniy, ruhiy holati tufayli o'zini himoya qila olmaydigan shaxslar va agar odamlarning sog'lig'i, hayoti bilan bog'liq bo'lgan holatlar. Agar da'vogar prokurorning ushbu da'vosini qo'llab-quvvatlamasa va bu uchinchi shaxslarning huquq va erkinliklariga daxl qilmasa sud uni ko'rmasdan qoldirishi mumkin.

Prokuror jarayonga kirishish zaruratini sudga asoslab berishi kerak.


O'zbekistonda Fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonun va prokuratura to'g'risidagi qonunga muvofiq prokuro keng qamrovli nazoratni amalga oshiradi. Masalan, prokuror qonunga zid sud hujjatlari ustidan protest keltirishi mumkin. Ya'ni taraflar savodsizligi tufayli qonunga zid qarorga rozi bo'lishgan taqdirda ham prokuror qonun ustuvorligini ta'minlash uchun protest kiritadi. Salbiy jihat emas lekin bir bo'shliq sifatida aytishim mumkinki, prokuror davlat manfaatini himoya qilish uchun ariza berishi mumkinligi keltirilgan lekin aynan nima davlat manfaati ekanligi keltirilmagan.

Qozog'istonda esa ijobiy tarafi prokurorlar ma'lumotlarni internet-resurslardan onlayn tartibda olishadi. Salbiy jihati esa prokuror aynan qaysi ishlarni ko'zlab bajarishi ro'yxati cheklangan, bizda esa bu tiizm kengroq.

Xorijiy mamalakat tajribasidan kelib chiqib ushbu taklifni kiritishim mumkin:

Qozog'istonda 2017-yilda prokurorning sud qarori ijrosini protest berish orqali avtomatik to'xtatish vaolati bekor qilingan Bu esa sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlashga yordam bergan. O'zbekistonda Fuqarolik protsessual kodeksga ko'ra Bosh

³⁷ <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912#:~:text=The%20Prosecutor%E2%80%99s%20Office,of%20the%20state.>



prokuror va uning o'rinbosarlari protest keltirish bilan birgalikda sud qarori ijrosini to'xtatib turish huquqiga egadirlar. Lekin bilamizki sud qarroi chiqdimi u hamma uchun majburiy ijro etilishi shart. Shu sababli Prokuror protest keltirganda, agar ijro davom etsa noxush oqibatlarga olib keladi deb hisoblasa unda ijroni to'xtatish bo'yicha sudga iltimosnoma kiritishi mumkin. Agar haqiqatan shunday bo'lsa unda sud bu haqda ajrim chiqarishi kerak. Yana o'ylaymanki prokurorning boshqa shaxslar manfaatini ko'zlab da'vo qo'zg'atishi holatini yana qayta ko'rib chiqish kerak, chunki o'sha shaxs advakat xizmatidan foydalana olmasligini isbotlagan taqdirdagina prokuor uning manfaatini ko'zlab da'vo qo'zg'atishi kerak, chunki hozirgi kunda prokurorlar ruhiy holati yomon niqobi ostidagi badavlat shaxslarning o'rniga da'vo kiritib ularni davlat bojidan qonuniy qutqarish holatlari ham ehtimoldan yiroq emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki: fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning nazorati juda muhim. Uning ishtirok etishi sud ishlarini yana liberallashtirishga va odil sudlovni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Prokuror "Prokuratura to'g'risida" gi qonunda belgilangan asosiy vazifalari asosida butun mamlakat hududida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat amalga oshiradi, shu bilan birga fuqarolik sud ishlarini yuritishda ham ishtirok etib nazoratni amalga oshirib, o'z vakolatlari yuzasidan ariza, taqdimnoma protest kiritadi xulosa va fikrni namayon qiladi. Yuqorida aytib o'tganimdek, fuqaroning sog'lig'I, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilisha olishmasa ularning buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat qilishlari mumkin. Masalan, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topishda prokuror ishtirok etadi. Bundan tashqari shunday holatlar ham borki prokurorni ishtirokisiz ko'rib chiqilmaydi, hatto prokuror uzrsiz sabablarga ko'ra sud ishiga kelmasa, sud ishi keying qoldiriladi. Bunday holatlarga ota-onalik huquqidan mahrum qilish, tiklash yoki cheklash bilan bog'liq holatlar, mol-mulkni egasiz deb topish bilan bog'liq, prokuror protesti asosida ko'rilayotgan ishlar va boshlarni misol qilishimiz mumkin. Shuningdek, FPK da uning huquq va majburiyatlari keltirilgan shular asosida ham sudda o'z vakolatini amalga oshiradi. Qozog'istonda ham ushbu yo'nalish bo'yicha prokuorning nazoratni amalga oshirishi deyarli bir xil faqat uning qaysi masalalar bo'yicha nazoratni amalga oshirishi biroz cheklangan.

Umuman olganda fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritishda prokuror nazorati aniq qonun hujjatlari bilan belgilangan va tartibga solingan, agar ushbu hujjatlardagi tepada keltirib o'tgan bo'shliqlar to'ldirilsa bu shaxslar, davlat va jamiyat manfaatlarining ta'minlanishi bo'yicha yanada manfaatli bo'lar edi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risidagi" Qonun
O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi
Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi
Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi
Qozog'iston Respublikasi "Prokuratura to'g'risidagi" Qonun

